



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT YIG'ILISHI BAYONI

2025-yil 11-iyul

№ 13

Toshkent sh

Hay'at raisi

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev

Ishtirok etdilar:

T.Butunbayev, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, Z.Ishpulatov,
D.Xodjiyaxmedov, A.O'razkeldiyev, M.Nadjimov

Qatnashganlar:

**Respublika
studiyasida:**

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi hay'at a'zolari,
vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim
boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari,
Ommaviy axborot vositalari xodimlari (*ro'yxat bo'yicha*)

**Hududiy
studiyalarda:**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, irrigatsiya
tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari, Nasos stansiyalari
va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik
gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim
boshqarmalari, "Suvqurilishinvest" hamda tumanlar "Suv yetkazib
berish xizmati" davlat muassasalari direktorlari va "O'zsuvqurilish"
AJ tarkibidagi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar rahbarlari (*ro'yxat
bo'yicha*)

Hay'at raisi kun tartibiga kiritilgan masalalar bilan hay'at yig'ilishi qatnashchilarini
tanishtirdi va muhokamaga qo'ydi. Yig'ilish kun tartibi va ish reglamenti hay'at a'zolari
tomonidan to'liq ovoz bilan tasdiqlandi.

**I. Vazirlik tizimida 2025-yilning I-yarmi davomida ijtimoiy-iqtisodiy
rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yakunlari hamda O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari bilan joriy yilga belgilangan prognoz
ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bilan bog'liq chora-
tadbirlar to'g'risida.**

(Xamrayev, Butunbayev, Qarshiyev, Ishpulatov, Sheraliyev, Yusupov, Taxirov, Fayzillayev,
Turdiboyev, Siddiqov, Sadinov, Rizzayev, Radjabov, Ataqllov, Tursunov, Toirov, Xamrayev)

Kun tartibidagi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri
Sh.Xamrayev, vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev,
Ishpulatov va O'.Sheraliyevlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri
va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari tomonidan taqdim etilgan axborot
va hisobotlarni tinglab, qayd etilgan xato-kamchiliklar va qoloqliklarni zudlik bilan bartaraf
etish, o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish, vegetatsiya mavsumida
mavjud sug'orish tarmoqlarini, shu jumladan, viloyatlararo va magistral kanallar, irrigatsiya
tizimlari, ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarini, nasos stansiyalari, sug'orish va meliorativ
quduqlarni joriy yil vegetatsiya mavsumida uzluksiz, to'liq va kafolatli ishlashini ta'minlash
hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan 2025-yilga
belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha
boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati
va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qildi:

1. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, "Suvqurilishinvest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbarlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan 2025-yilning I-yarmiga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasidagi amalga oshirilgan ishlar ***qoniqarsiz deb topilsin.***

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlarda bayon etilgan ko'rsatma va topshiriqlarning ijrosini kechiktirib bajarish, shuningdek, belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlanmaslik holatlaridan tegishli xulosa chiqarishi, shaxsiy mas'uliyat va javobgarlikni, har bir ijro intizomiga qat'iy va so'zsiz rioya etmaslik holatlari uchun ***intizomiy jazo muqarrarligini his etgan holda faoliyatini tashkil etishi uqtirib o'tilsin.***

2. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha joriy yilning I-yarim yilligiga belgilangan prognoz ko'rsatkichlarning hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlamaganligi uchun Payariq tumani "Suv yetkazib berish xizmatlari" davlat muassasalari direktori M.Ibragimovning ***egallab turgan lavozimidan ozod etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.***

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga mas'uliyatsizlik bilan yondashganligi uchun Andijon, Bo'ston, Qo'rg'ontepa, Qarshi, Muborak, Chiroqchi, Chortoq, Narpay, Nurobod, Paxtachi, Payariq, Guliston, Oqoltin, Yuqori-Chirchiq, Chinoz, Bog'ot, Qo'shko'pir, Xozorasp, Gurlan, Oqqo'rg'on, Bo'ka, Yangiyo'l va Boyovut tumanlari "Suv yetkazib berish xizmatlari" davlat muassasalari direktorlariga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasining birinchi qismi 1-bandiga asosan ***"hayfsan" e'lon qilinsin.***

Vazirlikning 2025-yil 21-maydagi 86-sonli buyrug'i bilan o'ziga yuklatilgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatda ta'minlamasdan mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yganligi uchun qo'llanilgan "hayfsan" intizomiy jazosidan tegishli xulosa chiqarmaganligi, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlashga mas'uliyatsizlik bilan yondashganligi uchun Kegeyli tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori K.Temirxanov hamda Qorao'zak tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi direktori B.Qosibayevlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 2-bandiga muvofiq oylik ish haqining ***30 (o'ttiz) foizi miqdorida jarima jazosi qo'llanilsin.***

Belgilab qo'yilsinki, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha 2025-yil uchun belgilangan reja-prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida bajarish choralari ko'rmagan irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i va ularning birinchi o'rinbosarlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.

4. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari D.Aliqulova hamda Yuridik bo'lim boshlig'i R.Sharopovlar vazir o'rinbosari-Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov bilan kelishilgan holda

mazkur hay'at yig'ilishi qarori bilan intizomiy javobgarlikka tortilgan rahbarlarga nisbatan qo'llanilgan jazoni rasmiylashtirish bo'yicha **2 kun muddat ichida** "Intizomiy jazo choralarini qo'llash haqida"gi buyruq loyihasini kiritсин.

5. Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, Vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, Z.Ishpulatov, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari rahbarlariga suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvga berish, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanish hamda suv va energiya resurslarni tejash bo'yicha 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar **talab darajasida emasligi ko'rsatib o'tilsin**.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, magistral kanallar, suv omborlari va sel-suv omborlari hamda xavf darajasi yuqori bo'lgan boshqa suv xo'jaligi obyektlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbarlariga:

3 kun muddatda joylarda 2025-yilning yilning I-yarim yilligi davomida amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar hamda hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalarni tanqidiy ruhda muhokama qilib, ularni zudlik bilan bartaraf etish va o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan viloyat, tuman va har bir suv xo'jaligi objekti kesimida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tasdiqlash, vazirlikka taqdim qilish hamda uning ijrosi haqida har oy yakuni bilan Vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim qilib borish;

3 kun muddatda suv xo'jaligi obyektlari amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlari va bino inshootlari egallagan yer maydonlarini xatlovdan o'tkazish, topografik suratga olish va yer ajratish hujjatlarini rasmiylashtirish ishlarini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" Qonuniga asosan "O'zdaverloyiha" DILI hududiy bo'linmalari, Kadastr agentligining Davlat kadastrlar palatasi, Respublika aerogeodeziya markazi va boshqa vakolatli tashkilotlar o'rtasida faqat ochiq tanlov o'tkazish orqali bajarilishini tashkil etish ishlarini yakunlash;

5 kun muddatda tizim tashkilotlari foydalanishidagi kadastr hujjatlari qilinmagan 391 ta bino inshootlarini Kadastr palatasi hududiy bo'linmalarda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini tashkil etish, ushbu ishlarga ajratilgan byudjet mablag'larini samarali va maqsadli foydalanishi ta'minlash hamda tanlov g'oliblari tomonidan bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda Ishchi guruhi tuzgan holda doimiy ravishda qabul qilinib olinishini hamda yil yakuniga qadar to'liq tugatish choralarini ko'rish;

10 kun muddatda 2025-yil hosili uchun ekilgan paxta maydonlarida tomchilatib va diskret sug'orish texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha moliyalashtirilgan maydonlarda qurilish ishlarini to'liq yakunlash.

15 kun muddatda moliyalashtirilgan maydonlarda qurilish ishlarini boshlamagan yoki texnologiyalarni ishga tushirishni kechiktirayotgan quruvchi korxonalar ro'yxatini shakllantirish va hududiy prokuratura organlariga taqdim etish;

joriy yilning 1-avgustga qadar Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda dispatcherlik xizmati xonalarini ta'mirlash, mebel va orgtexnika bilan jihozlash ishlarini tashkil qilish;

joriy yilning 1-avgustiga qadar tizim tashkilotlar hisobidagi nosoz suv o'lchash vositalarini tarirovka va metrologik qiyoslash ko'rigidan o'tkazish va keyingi choraklarda xarid qilinishi rejalashtirilgan suv o'lchash vositalarini xarid qilinishini ta'minlash;

bir oy muddatda pudrat korxonalari bilan hamkorlikda suv xo'jaligi obyektlarida o'rnatilgan texnik nosoz "Aqlli suv", "Dayver", nasoslarni "Onlayn" nazorat qilish qurilmalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil etgan holda ularni to'liq ishga tushirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

joriy yil 1-noyabrga qadar 75 ta loyiha doirasida 115,5 km (shundan, 97,3 km betonlashtirish) kanallar hamda 11,4 km yopiq sug'orish tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini to'liq yakunlash;

har oy yakuni bilan gidrometriya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, jumladan, suv o'lchash qurilmalari va vositalarini ta'mirlash, suv o'lchash, suv o'lchash reykasi va gidrometrik shtangalarni sotib olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida vazirlikka hisobot berib borish vazifalari topshirilsin.

har haftada O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri tomonidan tasdiqlangan har haftalik Reja-grafik asosida hududlarda o'quv-seminarlarni o'tkazilishini tizimli ravishda davom ettirish, hududlarda tashkil etilayotgan o'quv-seminarlarda aniqlangan xato-kamchiliklar va qo'riqlarni zudlik bilan bartaraf etish, o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish va natijasi haqida har hafta yakuni bilan Vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim etish;

har oy yakuni bilan keyingi oyning 3 sanasiga qadar iqtisod qilingan elektr energiyasi miqdorlari bo'yicha Vazirlikka tegishli hisob-kitoblar bilan asoslangan hisobotlarni taqdim qilish;

har oyda elektr energiyasi uchun haqiqatda ajratilgan mablag'lar bo'yicha nasos stansiyalarni ishlatish yuzasidan tegishli grafiklarni ishlab chiqib, viloyat hokimning qishloq xo'jaligi bo'yicha o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlatish va shu asosida nasos stansiyalarni ishlatilishini so'zsiz ta'minlash;

nasos stansiyalarga o'rnatilishi rejalashtirilgan elektrodvigatel, quyosh elektr panellari, quyosh suv isitish qurilmalari, kondensator qurilmalarini hamda chastota o'zgartiruvchi qurilmalarni sotib olinishini va o'rnatilishini to'liq ta'minlash;

doimiy ravishda ishlayotgan quduqlarni nazorat qilib, unga bog'langan maydonlarga suv tejovchi sug'orish texnologiyalari joriy qilmagan bo'lsa ularni darhol o'chirish choralarini ko'rish;

suv xo'jaligi obyektlari (*suv havzalari, daryolar, ko'llar, suv omborlari, gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallab turgan, shuningdek suv havzalarining va boshqa suv obyektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqalari*) amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlari, bino va inshootlardan samarali, maqsadli foydalanishini tashkil etish;

sanoat va energetika korxonalariga yetkazib berilayotgan har oylik texnik suvning miqdori va hisob-kitobiga aniqlik kiritish;

sanoat va energetika korxonalariga yetkazib berilgan texnik suv to'lovlarini o'z vaqtida undirish choralarini ko'rish hamda xatlovlar o'tkazib yangi iste'molchilarni aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

o'z vaqtida to'lovlarini amalga oshirmagan iste'molchilarga nisbatan mablag'larni undirish bo'yicha iqtisodiy sudlarga tegishli da'vo arizalarini kiritish;

vazirlikning tizim tashkilotlarning rivojlantirish jamg'armasiga mashina-mexanizmlar yordamida pudrat shartnoma tuzish orqali, vaqtincha bo'sh turgan bino-inshootlar hamda muhofaza zonalarini ijaraga berish, metallolom topshirishdan, yordamchi xo'jalik va boshqa manbalar hisobidan mablag'lar tushirish choralarini ko'rish;

korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash;

sohaga malakali mutaxassislarni jalb qilish va kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish maqsadida, xodimlarni ishga qabul qilish jarayonida malaka talablariga qat'iy rioya qilishlari bo'yicha shaxsiy mas'uliyati va javobgarlikni kuchaytirish;

kyelgusida malaka talablariga rioya qilmaslik holatlari aniqlangan taqdirda, ushbu tashkilotlarning rahbarlari hamda inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalari mas'ul xodimlariga intizomiy jazo choralari mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda ularning oylik ish haqlariga qaratish;

irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda melioratsiya obyektlarini tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari to'liq yakunlangach, ularni foydalanishga topshirish oldidan mahalla oqsoqollari, keng jamoatchilik vakillari ishtirokida tantanali tadbirlar o'tkazish va ularni vazirlikning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali yoritilishini tashkil etish;

suv xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar, bunyodkorlik ishlarini, qabul qilinayotgan O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari va ularning mazmun mohiyatini sohada mehnat qilayotgan barcha darajadagi rahbar va xodimlarga yetkazish maqsadida gazeta va jurnallarga obunani tashkil etish va ularni muntazam ravishda o'qib borilishini ta'minlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish;

Vazirlikning rasmiy veb-sayti, matbuot kotibining Telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog'ini suv xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan barcha darajadagi rahbar-xodim va ishchilar tomonidan har kuni ko'rib chiqilishini va o'qib borilishini tashkil etish hamda Vazirlik faoliyatiga oid muhim voqealar va tadbirlarni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida, Vazirlikning rasmiy veb-sayti, matbuot kotibining Telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida izchil yoritib borilishini ta'minlash vazifalari topshirilsin.

7. Vazir o'rinbosari R.Qarshiyev, Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish boshqarmasi boshlig'i J.Abdurazzoqov, Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i R.Raximov hamda Markaziy dispetcherlik va suv balansi xizmati direktori v.b B.Mamadaliyevga:

joriy yilning 1-avgustiga qadar Sirdaryo havzasidagi noqonuniy suv olish nuqtalari va o'rnatilgan nasos agregatlari oqibatida transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda, jumladan Sirdaryoning quyi qismida joylashgan Chordara suv omboriga suv kiritilishidagi kelib chiqayotgan muammolarni bartaraf etish;

suv resurslaridan tejamli va oqilona foydalanish uchun suvdan foydalanuvchilar hamda suv iste'molchilarini suvdan foydalanish madaniyati darajasini oshirish yuzasidan zarur choralar ko'rish;

suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalari (tartibi)ga rioya etilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatish;

kanallar, sug'orish tarmoqlari, suv omborlari, nasos stansiyalari hamda boshqa suv xo'jaligi obyektlarida suv resurslarining samarali boshqarilishi bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatish;

suvdan foydalanish va suv iste'molida suv resurslarining hisobi va hisobotini yuritish yuzasidan tizimli monitoring va nazorat ishlarini amalga oshirib, aniqlangan qonunchilik

hujjatlari buzilishi holatlari bo'yicha o'rnatilgan tartibda keskin choralari ko'rib borish hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida har oy yakuni bilan vazirlikka axborot kiritib borish;

har hafta suv resurslaridan foydalanishni samarali tashkil etish, gidrometriya va dispetcherlik xizmati faoliyatini rivojlantirish bo'yicha vazirlikning ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa (VKA) shaklida o'tkaziladigan selektor yig'ilishlarida tanqidiy ruhda muhokama qilish orqali barcha darajadagi rahbar-xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirib borish;

mazkur belgilangan tadbirlarning ijrosini ta'minlashga mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar (buyruq loyihasi) kiritish vazifalari yuklatilsin.

8. Vazir o'rinbosari O'.Sheraliyev, Moliya-iqtisod masalalari boshqarmasi (Z.Azimov) va Suv va gidrotexnika inshootlari kadastrini yuritish boshqarmasi (B.Minasipov) smeta hujjatlari asosida Suv xo'jaligi obyektlari amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlari va bino inshootlari egallagan yer maydonlarini xatlovdan o'tkazish, topografik suratga olish, yer ajratish hujjatlarini rasmiylashtirish hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'lgan mablag'larning hududiy tizim tashkilotlariga **bir hafta muddatda** chiqarilishini ta'minlasin hamda maqsadli ishlatilishini nazoratga olsin.

9. Ushbu hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini tashkil qilishni vazir o'rinbosari-Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov hamda vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev va O'.Sheraliyevlarga hamda uni nazorat qilishni Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev zimmasiga yuklatilsin.

Mazkur qaror loyihasi hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to'lg'azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-sonli Farmoni, ushbu hujjat bilan tasdiqlangan maqsadli ko'rsatkichlar amaliy tadbirlar rejasida belgilangan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va navbatdagi vazifalar haqida.

(Xamrayev, Ishpulatov, Musurmonov, Butunbayev, Qarshiyev, Sheraliyev, Xamrayev)

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirining o'rinbosari Z.Ishpulatov tomonidan taqdim etilgan axborot va hisobotlarni tinglab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda davlat dasturi doirasida 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qildi:

1. *"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-sonli Farmoni, ushbu hujjat bilan tasdiqlangan maqsadli ko'rsatkichlar amaliy tadbirlar rejasida belgilangan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va navbatdagi vazifalar haqida"gi axborot ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.*

2. Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, Vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, Z.Ishpulatov, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda davlat dasturi doirasida 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar **yetarli emas deb topilsin.**

3. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, "Suvqurilishinvest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbarlariga mazkur Farmon bilan 9 ilovaga muvofiq tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasining Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishi bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlar asosida 2025-yilning II-yarim yilligida:

Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha **62 maqsadga muvofiq:**

qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha yetkazish maqsadida 200 ming gektar maydonlarda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish;

tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug'orish tarmoqlarini yopiq quvurli sug'orish tizimlariga o'tkazish bo'yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti ko'rsatkichini 0,73 gacha yetkazish maqsadida foydali ish koeffitsiyenti ko'rsatkichini 0,68 gacha yetkazish;

suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning yillik quvvatini 300 ming gektarga yetkazish maqsadida 200 ming gektar maydonlarda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish;

Qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha **63-maqsadga muvofiq:**

myelioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug'oriladigan yer maydonlarida sho'rlangan maydonlarni 1,7 million gektargacha kamaytirish maqsadida sho'rlangan maydonlarni 24 ming gektarga kamaytirish;

kuchli va o'rta sho'rlangan sug'oriladigan yer maydonlarini 430,0 ming gektargacha, yer osti suv sathi muammoli holatda bo'lgan yer maydonlarini 773,4 ming gektargacha kamaytirish maqsadida 33,8 ming gektarga kamaytirish;

tuproq o'zanli bo'lgan magistral va xo'jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 46 foizga yetkazish maqsadida, 40,0 foizga yetkazish;

Irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish bo'yicha

64-maqsadga muvofiq:

kamida 100 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish maqsadida 6 ta suv xo'jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy etish;

"Yashil energiya" texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini kamaytirish bo'yicha **65-maqsadga muvofiq:**

nasos stansiyalaridagi eskirgan 1 069 ta nasoslarni energiya tejamkorlariga almashtirish maqsadida 80 ta nasoslarni energiya tejamkorlariga almashtirish;

nasos stansiyalaridagi eskirgan 1 079 ta elektrodvigatellarni energiya tejamkorlariga almashtirish maqsadida 90 ta elektrodvigatellarni energiya tejamkorlariga almashtirish;

energiya tejamkor qurilmalar o'rnatish, nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish, ularning yillik elektr energiyasi iste'molini 30 foizga kamaytirish maqsadida 6,8 mlrd kVt/soatga kamaytirish;

ushbu Farmon bilan 16 ilovaga muvofiq tasdiqlangan 2025-yilda atrof-muhitni asrash yo'nalishida vazirlik va idoralar tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar rejasi asosida qishloq xo'jaligida yer resurslarining monitoringini ta'minlash, kollektor-drenaj tarmoqlaridagi suvlari sifatining monitoringini olib borish hamda yer resurslarining degradatsiya sur'atlarini kamaytirish bo'yicha oldini oluvchi choralar ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, Vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, Z.Ishpulatov, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

bir kun muddat ichida mazkur yig'ilish qarorini har bir xodimga o'qib eshittirish, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, ijro intizomiga rioya qilinmaganda, shuningdek, topshiriqlarning ijrosi belgilangan muddatlarda ta'minlamagan taqdirda intizomiy jazo chorasi muqarrarligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladigan mukofot va rag'batlantirish mablag'laridan chegirib qolinishi haqida rasman ogohlantirish orqali barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

vazirlik tomonidan ishlab chiqilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga, dasturlar, takliflar va chora-tadbirlarga aniqlik kiritib ularning ro'yxatini shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni kamida ***45 kun oldin*** boshlab, tegishli vazirlik va idoralar hamda vakolatli organlar bilan kelishilgan hamda Adliya vazirligining xulosasini olgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkil etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda davlat dasturi doirasida 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarni tahlil qilib, ushbu topshiriqlar ichidan mablag' talab qilinadigan va xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog'liq masalalar bo'yicha birinchi navbatda shug'ullanib, ularni to'laqonli va sifatli ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

har bir berilgan ko'rsatma va topshiriqlarga asosan, ijro intizomi masalasiga yuqori mas'uliyat bilan yondashgan holda belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq va sifatli ta'minlash bo'yicha ishlarni to'g'ri rejalashtirish, topshiriq ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablag', resurs va energiya sarflanishi zarurligini inobatga olish;

topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani vazir o'rinbosarlari, lozim bo'lsa Vazir huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal vazifalari yuklatilsin.

5. Vazir Kotibiyati mudiri S.Alimov hamda Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi boshlig'i M.Ibragimovlarga:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar hamda davlat dasturi doirasida 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlar ijrosi yuzasidan ***kunbay tizimida*** tizimli va qat'iy monitoring yuritish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha "Ijro.gov.uz" tizimiga kiritilgan ma'lumotlar va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan topshiriqlarni nazoratdan yechish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borish;

ushbu Farmon bilan belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda (*har oy yakuni bilan*) tahlil qilib borish, ushbu hujjatlarning ijrosini ta'minlashga e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar (*intizomiy jazo chorasini qo'llash yuzasidan buyruq loyihasi*) taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qaror topshiriqlarining ijrosini nazorat qilish vaziri o'rinbosari-Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov zimmasiga yuklatilsin.

Ushbu qaror loyihasi hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to'lg'azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Hay'at yig'ilishi yakunida hay'at raisi Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga bugungi hay'at yig'ilishi qabul qilgan qaror asosida **2 kun muddatda** joylarda 2025-yilning I-yarmi davomida amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar hamda hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalarni tanqidiy ruhda muhokama qilib, ularni zudlik bilan bartaraf etish va o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan viloyat, tuman va har bir suv xo'jaligi obyekti kesimida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bilan 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish yuzasidan tegishli topshiriq va tavsiyalar berdi.

Hay'at raisi



Sh.Xamrayev